

MA'NAVIY BARKAMOL FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONANING O'RNINI

*Boygobilov Husniddin Ahmad o'g'li**Xoja Buxoriy madrasasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilalarda farzand tarbiyalash masalalari sharhi olib borilgan. Maqolada bolaning ma'naviy barkamol bo'lish shart-sharoitlari muhokama etilgan, shuningdek ota-ona va farzand munosabatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, tarbiya, munosabat, komil inson, o'zbek oilalari, psixologik savodxonlik.

Oila maskani ikki ustun - er va xotindan iborat bo'lsa, bu ikki ustunni bir-biriga mustahkam bog'lovchi - farzanddir. Farzandning har jihatdan komil inson bo'lib yetishishida ota-ona va bola munosabatlarida tarbiya masalasi katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan farzand munosabatlarining o'zbek oilalari muhitida o'rganilishi millat va davlat kelajagini o'ylash hisoblanadi. Oiladagi ota-ona va farzand munosabatlarining samarali kechishida o'zbek oilalarida ota-onalarning farzandiga munosabat xususiyatini aniqlash masalalariga e'tibor qaratish lozim. Tarbiya ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchidir¹. Tarbiyaviy ta'sirlarning shakl va uslublaridan to'g'ri foydalanish har tomonlama sog'lom farzandlar tarbiyasiga zamin hozirlaydi. Qolaversa ota-onalar bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, uni odobli, ahloqli qilib voyaga yetkazganliklari tufayli olqishga sazovor bo'ladi².

Oilada ota-onaning, shu oiladagi kattalarning yurish-turishidan tortib, so'z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, hatto atrof- muhitga munosabati va shu singari oddiy bo'lib ko'rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta'sir qiladi. Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasi va o'z oilasiga hamda unda tarkib topgan muhitga bog'liq. Hozirda yoshlarni yetuk, barkamol shaxslar etib tarbiyalash ishlariga e'tibor keng tus oldi. Yoshlarni axloqan pok, jismonan sog'lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biridir³.

O'zbek oilasi sharoitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos ijobiy tomonlari kuzatilgani bilan ayrim tomonlari borki, bu o'z navbatida bola xarakterining shakllanishida namoyon bo'ladi. O'tkazgan tadqiqotdan olingan natijalarga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz:

- Ota-onalar o'z rollariga muvofiqlik xususiyatlarini namoyon eta olar ekanlar, bu borada ularda asosan, talabchanlik, ba'zan yumshoqlik ko'rsatish va g'amxo'rlik xususiyatlarini ko'rsata olish va namoyon etishi kuzatildi.
- Oilada bolaga nisbatan munosabatda onalarning otalarga nisbatan ko'proq vaqt ajratishi kuzatildi.
- Bolaga va uning xulqiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish va oqilona ish tutish jihatidan esa otalar onalarga nisbatan ustun ekanliklari namoyon bo'ldi.
- Bolaning turli jihatdan rivojlantirish ishiga onalar ko'proq imkoniyat yaratib beradilar. Onalarning o'z bolalarini kuzatish imkoniyatlari yuqori ekanligi namoyon bo'ldi.- Bolaga munosabatda otalar ko'proq ravishda uni teng deb qarashlari, do'stona tushunishlari aniqlandi.
- Hozirgi ota-onalarning o'z rollariga muvofiq ekanliklari ularning o'z bolalari bilan

¹ Uzoqov X., G'oziev E. va bosh. Oila etikasi va psixologiyasi. T., 2012. 129 b.

² Yo'ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. T.: 2014.99 b.

³ Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2016. 142 b.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

munosabat o‘rnatishda juda yaxshi, o‘rtacha darajadagi holatlarida ko‘rindi.

- Farzandlar ota-ona oilasidagi o‘zaro munosabat va vaziyatlarga befarq emasliklari namoyon bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida farzandlarning ota-onasi oilasi bilan munosabati xususiyatlarida salbiy emas, balki ijobiy tendensiyalar ustunligini ko‘rsatadi.

O‘zbek oilasida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash, xulosalar hamda olingan natijalar asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

- Ota-onalarga ota-onalik mas‘uliyati va baxti nasib etgach, farzandlari tarbiyasiga, uning kelgusida qanday inson bo‘lishiga bevosita javobgar ekanligini doimo tushuntirish;

- Ota-onalar o‘z farzandlari oldida yaxshi insoniy munosabatlarni, jumladan namunalni muomalani namoyish etishlarini targ‘ib qilish;

- Mahallada ota-ona va farzandlar ishtirokida shaxslararo munosabatlargadoir suhbatlar uyushtirish;

- Ota-onalarning bola tarbiyasida psixologik savodxonlik masalalariga e‘tibor berish, joylarda psixologik maslahatxonalar tashkil etish.

Demak, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabat bola shaxsi shakllanishidagi yetakchi omillardandir. Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarish va ma‘naviy islohotlar jamiyatda, barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o‘z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a‘zosini tarbiyalash hamdir. Shuning uchun biz oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi psixologik munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishga oila a‘zolarini tayyorlasak, bundan hayotimizda yuz berishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar, nizoli vaziyatlarni oldini olgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 204-206.
2. Yo‘ldoshev M. Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta‘siri. T.: 2014. 99 b.
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T., 2016. 142 b.
4. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun. G‘.B.Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2019. 338 b.
5. Uzoqov X., G‘oziev E. va bosh. Oila etikasi va psixologiyasi. T., 2012. 129 b.
6. Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo‘llanma. – T., “Sharq”, 2011. 272 b.